

INVESTITSIYA FAOLIYATINING IQTISODIY AHAMIYATI

Jizzax viloyat 2-son kasb-hunar maktabi direktori

Azimov Faxriddin Xamroyevich

Annotatsiya: ushbu maqolada hududlarda investitsiya faoliyatini keng jalb etish hamda uning iqtisodiy ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, investitsiya, investorlar, soliq, jahon tajribasi.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Директор Джизакской областной профессиональной школы №2

Азимов Фахриддин Хамроевич

Аннотация: в данной статье представлена информация о широком привлечении инвестиционной деятельности в регионах и ее экономическом значении.

Ключевые слова: Стратегия развития Нового Узбекистана, инвестиции, инвесторы, налоги, мировой опыт.

ECONOMIC SIGNIFICANCE OF INVESTMENT ACTIVITY

Director of vocational school No. №2 of Jizzakh region

Azimov Fakhriddin Khamroevich

Abstract: This article provides information on the wide attraction of investment activity in the regions and its economic significance.

Keywords: New Uzbekistan Development Strategy, investment, investors, tax, global experience.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish siyosati – mavjud moliyaviy resurslar, vaqt va imkoniyatlardan samarali foydalanish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish hamda uning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini rag'batlantirish orqali investitsiyalarni faol jalb qilish va ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da investitsiya muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlariga xorijiy, xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda ularning samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Mazkur siyosat doirasida investorlar uchun soliq va bojxona imtiyozlari, huquqiy kafolatlar va infratuzilma rivojini qo'llab-quvvatlash choralari amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan buyon sanoatlashgan hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish va investitsiyalarni jalb qilishning samaradorligini ta'minlash davlatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy masalalaridan biri bo'lib kelmoqda. Sanoatlashgan hududlarda investitsiya muhiti yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va rivojlantirish maqsadida iqtisodiyotning liberalizatsiyasi, davlat boshqaruvini takomillashtirish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investorlarning davlat siyosatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, shuningdek, investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas'uliyatini oshirish, tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, sanoat tarmoqlariga zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda sanoatlashgan hududlarga investitsiyalarni jalb qilish jarayonini nazariy jihatdan tadqiq qilish, investitsiyalarni jalb etishning asosiy

sharti bo'lgan qulay investitsiya muhiti yaratish imkoniyatlarini o'rganish, iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish va uning samaradorligini oshirish hamda shu orqali hududlarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishni hozirgi davr sharoitlariga mos tarzda takomillashtirish zarurati mavjud. Shuningdek, sanoatlashgan hududlardagi investitsiya faoliyatini yanada faollashtirish va investorlarning global bozorlar bilan integratsiyasini qo'llab-quvvatlash yo'llarini izlash ham dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, faol investitsiya siyosatini yuritgan davlatlar o'z iqtisodiyotlarining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli, investitsiya – iqtisodiyotning asosiy dvigateli, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi deb atalishi haqli bo'ladi. Investitsiyalar bilan birga, turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuqori malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik esa tez rivojlanadi. Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi, chunki ular ish o'rinlarini yaratishga, infratuzilmani modernizatsiya qilishga va mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi kapitalni jalb qilishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishdi. Bu o'tgan yilga nisbatan investitsiyalarning 127,6% ga oshganida namoyon bo'ldi.

Jami o'zlashtirilgan mablag'lar hajmi 493,7 trillion so'mni, ya'ni o'rtacha 12 651,54 so'm/USD kursida 39,03 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

Iqtisodchi I.A.Blank mamlakatning investitsion jozibadorligini baholashda, iqtisodiyot tarmoqlarining investitsiya jozibadorligini aniqlash uchun uchta asosiy elementni ajratib ko'rsatadi: iqtisodiy tarmoqlar rivojlanishining istiqbolli darajasi, korxonalarning o'rtacha rentabellik darajasi va investitsiya tavakkalchiliklarini baholash. Mening fikrimcha, mamlakatning investitsion jozibadorligini baholashda, shuningdek, umumiy iqtisodiy rivojlanish, investitsiya infratuzilmasi, bozordagi munosabatlar va tijorat infratuzilmasining rivojlanish darajasi, investitsion faoliyat xavfsizligi holati va demografik tavsif kabi ko'rsatkichlar ham

qo'shimcha sifatida hisobga olinishi kerak.

Rivojlangan davlatlarning iqtisodiy taraqqiyotida investitsiyalar asosiy omil sifatida muhim rol o'ynaydi. Iqtisodiy o'sish darajasini aniqlashda esa, yalpi ichki mahsulot (YIM), yalpi milliy mahsulot (YMM), milliy daromadga nisbatan real daromadning oshishi, shuningdek, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulotning o'sishi kabi ko'rsatkichlar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Investitsion faoliyatni amalga oshirishda quyidagi asosiy bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich – Investitsiyalashdan oldingi bosqich: Investitsion resurslarni jamlash va eng ko'p foyda keltiradigan ob'ektlarga investitsiya qilishni amalga oshirish jarayonlari.

Ikkinchi bosqich – Investitsiya qilish: Resurslarni kapital qo'yilmalarga aylantirish, ya'ni investitsion faoliyat ob'ektlariga investitsiyalarni transformatsiya qilish jarayoni. Bu bosqichda investorlar mablag'larni konkret investitsiya ob'ektlariga yo'naltiradilar.

Uchinchi bosqich – Resurslarni investitsiyalashga o'zgartirish jarayonini yakunlash: Yangi xarid qilish qiymatining yuzaga kelishini ifodalaydi. Bu bosqichda amalga oshirilgan investitsiyalar o'zgaradi va yangi qiymat yaratiladi.

To'rtinchi bosqich – Investitsion faoliyat maqsadining yakuniy realizatsiyasi: Investitsiyalashdan olingan daromadlar hisoblanadi. Bu bosqichda investorlar o'zlarining investitsiyalaridan kutilgan daromadni yoki foydani oladilar.

Bu bosqichlar investitsion faoliyatning har bir elementini to'g'ri boshqarish va muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Investitsiyalar jamoatning real kapitalini ko'paytirishga va iqtisodiyotning turli tarmoqlarining ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan muhim omildir. Tarmoqlar iqtisodiyoti uchun yangi texnologiyalar va investitsiyalarni joriy etish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotning o'sishiga, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlariga va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi. Yangi

texnologiyalarni qo'llash orqali tashkilotlar nafaqat o'z ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytiradi, balki narxlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilash orqali raqobatda yutish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Shu bilan birga, investitsiyalar yordamida tashkilotlar o'z pozitsiyalarini mustahkamlab, global bozorda samarali faoliyat yuritish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalar mamlakatning doimiy rivojlanishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ular moliyaviy resurslarni samarali jamlash orqali iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, yangi korxonalarni sotib olish va biznesning yangi yo'nalishlarini rivojlantirish kabi vazifalarni hal qilishda yordam beradi. Bu jarayonda texnologiyalarni modernizatsiya qilish va innovatsiyalarni tatbiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot Strategiyasi // <https://strategy.uz>
2. Бланк И. А. Управление инвестициями предприятий. - К.: Ника-Центр, Элга. 2003. – С. - 102.
3. Saida, A., & Dilshod, K. (2019). Analysis of foreign investment in the economic growth of the republic of uzbekistan. *Test Engineering and Management*, 81(11-12), 1561-1566.
4. Gulmira, U. (2023). The need to attract foreign investments to the national economy on a large scale. *Academia Science Repository*, 4(5), 314-319.
5. Stat.uz